

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI



“TASDIQLAYMAN”

Mirzo Ulug'bek nomidagi
O'zbekiston Milliy universiteti rektori

10.07 2026-yil

IKKINCHI VA UNDAN KEYINGI OLIY TA'LIM
BO'YICHA BAKALAVRIAT TA'LIM YO'NALISHLARI
UCHUN CHET (INGLIZ, FRANSUZ, NEMIS) TILI
FANIDAN IMTIHON DASTURI VA BAHOLASH MEZONI
(ta'lim yo'nalishlarga mos fan bo'yicha)

Tuzuvchilar:

O'zMU "Ingliz tilshunosligi" kafedrası mudiri,
f.f.d., prof. Djumabayeva J.Sh.
O'zMU "Tarjima nazariyasi va qiyosiy tilshunoslik"
kafedrası mudiri, f.f.d., prof. Sadullaeva N.A.
O'zMU "Fransuz filologiyasi" kafedrası mudiri,
f.f.d., prof. Djafarova D.I.
O'zMU "Nemis filologiyasi" kafedrası mudiri,
f.f.n., prof. Imyaminova Sh.S.

Taqrizchilar:

O'zMU "Tarjima nazariyasi va qiyosiy tilshunoslik"
kafedrası f.f.d., prof. Siddikova I.A.
O'zMU "Xorijiy til va adabiyoti" kafedrası mudiri,
f.f.d., dots. Sarimokov X.A.

Mazkur dastur Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti O‘quv-uslubiy Kengashining 2026-yil “ _____ ” dagi “ _____ ” - sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan.

KIRISH

Ushbu dastur **ingliz, nemis** va **fransuz** tillaridan imtihon asosida ikkinchi va undan keyingi oliy ta’lim bo‘yicha bakalavriat ta’lim yo‘nalishlariga kiruvchi abituriyentlarga mo‘ljallangan bo‘lib, unda abituriyentlarning chet tillarini tinglab tushunish, og‘zaki nutq ko‘nikmasi, matnda ishlatilgan so‘z va iboralarni tarjima qila olish qobiliyati aniqlanadi.

Dasturda keltirilgan ushbu mavzular abituriyentlarning xorijiy tillarda bilimlarini baholashda muhim o‘rin tutadi.

Fanning maqsadi va vazifasi

Dasturning maqsadi

- abituriyentlarning ingliz, fransuz va nemis tili fanlaridan bilim darajasini aniqlashdan iborat.

Dasturning vazifasi

- abituriyentlarning chet tillarida eshitish ko‘nikmalarini aniqlash;
- abituriyentlarning mustaqil fikrini bayon etish kompetensiyasini bilish;
- orginal matnni tushunish darajasini aniqlash;
- berilgan matnlar yuzasidan o‘zining fikr mulohazasini chet tilida bayon qilish;
- og‘zaki nutq ko‘nikmasi, leksik til boyligi, talaffuzini aniqlash;
- abituriyentlarning og‘zaki suhbatga kirishish kompetensiyalarini aniqlashdan iborat.

Abituriyentning bilimiga qo‘yiladigan talablar

Fonetika. Abituriyentlarning o‘z fikrlarini erkin, ifodali va to‘g‘ri bayon etishlari uchun fonetik qoidalarga rioya qilishlari muhim hisoblanadi. Bunda, avvalo, so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilish, gapirish jarayonida ohangga e’tibor berish va urg‘ularni to‘g‘ri qo‘llash talab etiladi.

Grammatika. Chet tilidagi fikrni to‘g‘ri va aniq bayon qilishda, avvalo, gaplarda so‘z tartibiga rioya qilish hamda gaplarning ifoda maqsadiga ko‘ra turlarini bilish muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, abituriyentlar quyidagi grammatik hodisalarni bilishlari va to‘g‘ri qo‘llay olishlari kerak:

Mustaqil so‘z turkumlari:

Ot. Turdosh va atocli otlar, ularning ma'no va qo'llanish xususiyatlari, otlarda birlik va ko'plik kategoriyasi, ko'plik shakllarining yasalishi hamda otlarning kelishiklar bo'yicha turlanishiga e'tibor beriladi.

Sifat. Sifat darajalari, asliy va nisbiy sifatlar, sifatlarning yasalishi, otlashishi va turlanishi.

Son. Sanoq va tartib sonlarning yasalishi va qo'llanilishi. Sonlarning otlashishi. Olmoshlarning turlari, ularning kelishiklarda qo'llanilishi va gapdagi sintaktik vazifalari.

Fe'l. O'timli va o'timsiz fe'llar, fe'llarning yasalishi va tuslanishi, fe'l nisbatlari, mayl kategoriyasi va fe'l zamonlari.

Ravish va ravishning ma'no turlari, ularning yasalishi va gapdagi vazifalari o'rganiladi. Holat, payt, o'rin, miqdor-daraja, sabab va maqsad ravishlarining nutqda to'g'ri qo'llanilishiga e'tibor beriladi.

Yordamchi so'z turkumlari: ko'makchi, bog'lovchi, yuklama va ularning ma'no va tuzilish jihatdan turlari.

Modal so'zlar, undov so'zlar, taqlid so'zlar, shuningdek, tasdiq va inkor so'zlarning qo'llanilishi.

Sintaksis. Gap va gap bo'laklari, bog'lovchilar va ularning turlari, uyushiq bo'lakli gaplar, ajratilgan bo'laklar hamda gaplarning tuzilishiga ko'ra turlari.

Qo'shma gap. Qo'shma gaplarning turlari, xususan, ergash gapli qo'shma gaplar va ularning turlari.

Imtihon natijalarini baholash mezonlari

Imtihon suhbat shaklida o'tkaziladi hamda suhbat natijasi o'rdi yoki o'lmadi shaklida baholanadi.

Imtihon komissiyasi tarkibi va uning faoliyatini tashkil etish talablari

Imtihon komissiyasi tarkibi va uning faoliyatini tashkil etish talablari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Imtihon komissiyasi faoliyati 2026-2027-o'quv yili qabul komissiyasi tomonidan tashkil etiladi;
- Xorijiy til fanidan imtihon komissiyasi tarkibi 3-nafar a'zodan kam bo'lmagan holda tashkil etiladi;
- Imtihon natijalari 3 kun muddatdan kechiktirilmagan holda e'lon qilinadi;

- Imtixon natijalaridan norozi abituriyentlarning murojaatlarini ko'rib chiqish bo'yicha апеллatsiya komissiyasi tashkil etiladi.


Appelyatsiya komissiyasi tarkibi va uning faoliyatini tashkil etish talablari

Appelyatsiya komissiyasi imtihonni o'tkazgan oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasi tomonidan tashkil etiladi.

- Abituriyent imtixon natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab 24 soat ichida appelyatsiya komissiyasiga *yozma shaklda* murojaat etishi shart. Belgilangan muddatdan keyin murojaatlar qabul qilinmaydi.

- Appelyatsiya komissiyasi abituriyentning faqat o'zining ishi bo'yicha bildirgan murojaatini yuzma-yuz abituriyentning ishtirokida ko'rib chiqadi va yakuniy qarorni beradi.

Qabul komissiyasi mas'ul kotibi



Z. Raxmonov